
AHOLI MUAMMOLARI BARTARAF ETILMOQDA

Rishton tumani Pandigon MFYda "Obod xonadon", "Obod ko'cha", "Obod mahalla" tamoyili asosida bugun katta obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Shuning bilan birga aholi xonadonlariga birma-bir kirib, ularning muammolari bartaraf etilmoqda.

📍 Uyma-uy yurib o'rganishlar davomida ushbu mahallada yashovchi Abrorjon Akbarovning xonadoni ta'mirtalab ekanligi aniqlangan edi. Bugungi kunda ushbu xonadon ta'mirlab berilmoqda.

????Bugun tuman hokimi va respublika ishchi guruh a'zolari ushbu xonadonga tashrif buyurishib, xonadon sohibasi Nodiraxon Akbarova bilan dildan suhbatlashishdi.

Xonadon egasi xayrli ishlarni ustida turgan barcha rahbarlarni duo qilib, minnatdorchilik bildirdi.

???? - Mahallamizda bo'layotgan ulkan bunyodkorlik ishlaridan barchamiz xursand bo'lyapmiz, deydi Nodira opa. - Bizning qishloq ham shahardan kam bo'lmasligini eshitib quvondik. Ayniqsa, biz kabi ehtiyojmand oilalarga berilayotgan e'tibor uchun barcha rahbarlarga minnatdorchilik bildiraman.

📍 Chindan ham bugun bunyodkorlik maydonida aylangan Pandigon tomoman yangi qiyofaga ega bo'ladi.

2023-09-15 16:58:38